

TARJIMADAGI MUAMMOLAR

Achilov Oybek Rustamovich

Toshkent Davlat Transport Universiteti Professor o'qituvchisi

Inog'omjonova Robiya Rustamjon qizi

Toshkent Davlat Transport Universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarjima sohasida hanuzgacha yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklar haqida so'z boradi va ularni bartaraf etishga oid fikr va mulohazalar ilmiy jihatdan ko'rsatib o'tiladi. Yosh, bo'lajak tarjimonlarga chet el adabiyotidan tarjima qilayotganda nimalarga e'tibor berish kerakligi va qanday malaka va ko'nikmalarni hisobga olib qilishlari kerakligi tavsiya qilingan. Shu bois ushbu ishda tarjimaning muhim muammolari umumlashtirilib tavsiflangan va ba'zi bir keng, muhim savollarga javob berilgan.

Kalit so'zlar: tarjimashunoslik, asl nusxa va tarjima tafovutlar, tarjimachilik nazariyasi, lisoniy va g'ayrilisoniy muammolar, sinonimlar, tarjimon, so'z o'yinlari, lingvistika, so'z tanlash masalasi, avtomatik tarjima.

KIRISH: Tarjimashunoslik - tilshunoslik, tarixshunoslik, falsafa, psixologiya, adabiyotshunoslik kabi o'zaro yaqin fanlarining doimiy ta'sirida oyoqqa turdi. XX asning 60-yillaridan e'tiboran ushbu "ittifoqchi" fanlar safiga san'atshunoslik ham tortildi. Tarjima tanqidi doirasida tarjima poetikasi va estetikasi degan bepoyon mavzular silsilasi ham maydonga chiqdi. Adabiy-badiiy, ilmiy-texnik, gazeta-jumal, og'zaki-sinxron. mashina tarjimalarining amaliyotida kelib chiqayotgan qonun- qoidalar yo'l-yo'riqlari. me'yorlari, usullari, ko'nikmalari shakllana boshladi. Ishda mukammallikka intiluvchi bu ijodiy-ilmiy jarayon hech qachon to'xtamaydi. Tarjimachilik nazariyasining vujudga kelishi va uning universal qoidalarining ishlanishi ijodiy tarjima amaliyotiga keskin va xayrli ta'sir qildi. XX asrning o'rtalaridagiga nisbatan olganda ham, tarjimalarning sifati va saviyasi sezilarli darajada ko'tarildi. Tarjimada savodsizlik. taglama (подстрочник) tarjimalardan foydalangan holda tarjima qilish, vositali tillar orqali tarjima qilish kamaydi. Asliyat va tarjima filining butun qirralari va nozikliklari, bir-birlariga qay darajada mos va muvofiq ekanliklari, murakkab tomonlarini qiyosan mukammal bilish hozirgi zamonda tarjimaning eng birinchi shartlaridan ekanligi hamma yerda tan olindi.[1,3,5]

ADABIYOTLAR TARIXI VA METODOLOGIYA

Har bir til vaqt o'tgani sayin rivojlanib boradi. Bu jarayonda ba'zan muvaffaqiyatlar, ba'zan keskin burilishlar va muammolar vujudga keladi. Aynan millat istiqboli, kelajagi uchun ham tildagi vujudga kelayotgan muammolar barcha uchun muhim va birinchi darajadagi omil bo'lmog'i kerak. Tarjima qilish uchun tarjimon, avvalo, asl nusxani to'la-to'kis butun ma'no qirralari bilan o'zlashtirishi, keyin uni iloji boricha qayta yaratishi, va Vatan adabiyoti namunasi kabi bir asarni o'quvchiga yetkazishi kerak. XII asrdan to bugunga qadar tilimizda ulkan o'zgarishlar yuz berdi: ko'p so'zlar iste'moldan chiqdi, qanchadan qancha yangi so'zlar paydo bo'ldi va eski so'zlarning o'rnini egalladi. Shuningdek, bugun ham tilimizda bir qancha o'zgarishlar yuzaga kelmoqda. Bu o'zgarishlar aynan, tarjimashunoslik sohasida o'z aksini topmoqda. Ma'lumki, til so'zga qo'shimchalar qo'shish orqali so'z hosil bo'lishi, yangi ixtirolarni nomlash, so'zni boshqa fillardan o'z holicha o'zlashtirish va tarjima amaliyoti jarayonida boyib boradi. Til boyishining tarjima amaliyotidagi jarayoni murakkab va o'ta mas'uliyatli jarayondir. Sababi shundaki, tildagi bitta noto'g'ri tarjima ko'plab muammolarga sabab bo'ladi. Mavzu davomida ayni mana shu tarjima, uning ahamiyati, tarjimashunoslikdagi muammolar, va albatta yechimlar va istiqbollar haqida batafsil fikr yuritamiz. Matnning mazmuni, muallifning maqsadini tushunish va boshqa tilda ifodalab berish uchun ko'pincha tildan tashqari ham ancha-muncha narsalarni bilishga to'g'ri keladiki, bu g'ayrilisoniy omillar deyiladi. Binobarin, tarjimaning faqat til bilan bog'liq, til doirasida hal qilinadigan muammolari lisoniy, til qobiqlarini yorib o'tgan, tildan tashqari muammolari g'ayrilisoniy muammolar hisoblanadi. [2,4,6] G'. Salomovning yozishicha, " tarjima, shubhasiz, lisoniy faoliyatga asoslanadi, lekin sof til tafovutlarini bartaraf qilish tarjima jarayonida bosib o'tiladigan bir bosqichdir, xolos. Tarjima ikki grammatika (grammatik sistema), tarixan tarkib topgan ikki uslubiy sistema, ikki tarixiy-adabiy an'ana, ikki she'riy sistema, ikki individual yozuvchi-muallif va tarjimonning qiyos qilinishi yoxud to'qnashuvini taqozo etuvchi ijodiy jarayondir". "Asl nusxa bilan tarjima tili bevosita bir-biriga teng emas. Ikki tilning lisoniy imkoniyatlari bir-biriga " ekvivalentlik holatida bo'lmaydi. Shu sababdan ko'r-ko'rona tarjima qilish mumkin emas. So'zlarning aniq mazmuni bilan estetik sifatleri o'zaro bir-brining o'rnini qoplay olmaydi. Shuning uchun ham matnning tili qanchalik serma'no, badiiy tarafdin serjilo bo'lsa, tarjima shunchalik qiyinlashadi". Asl nusxa va tarjima o'rtasidagi asosiy tafovutlar, avvalo, ikki til o'rtasidagi farqlarda namoyon bo'ladi. Ba'zi so'zlar bir tilda boshqa ma'noda, ikkinchi tilda boshqa ma'noda kelishi mumkin. Bir tilda ijobiy mazmunda qo'llanadigan so'z boshqa tilda salbiy ma'no bildirishi mumkin, deb bu tafovutlarni ming yil

burun Abu Rayhon Beruniy ham ko'rsatib ketgan edi. Chunonchi, tarjimashunos Zahridin Isomiddinovning yozishicha, **jo'ra** so'zi o'zbeklarda erkaklarga nisbatan qo'llansa, turkmanchada **dugona** ma'nosida keladi. Yoki **olchoq** so'zi bizda muttaham, pastkash, ablah kimsani bildirsa, turkmanchada **xushfe'l**, **ko'ngli ochiq** kishini anglatadi. Qirg'izchada esa **qatiqni ayron** deyishadi. **Qizg'anmoq**- o'zbekchada qizg'anish, tatarchada **rahm qilish**; **yurt** - o'zbekchada **xalq**, **o'lka**, **jamoat**, **Vatan**, tatarchada **o'y**, **fikr**; quyma-o'zbekchada **holva**, tatarchada **devor**; **qir** – o'zbekchada **tepa,yaylov**, tatarchada **chet**, **qirra** va hokazo. Binobarin, o'zaro o'xshashligiga ishonib, bu so'zlarni shundoqqina o'zbek tiliga ko'chirib qo'yib bo'lmaydi. Sinonimlar- ma'nodosh so'zlar ham har bir tilning boyligi. Masalan, "Boburnoma"da "o'ldi" so'zi 27 xil ifodalangan ekan: o'ldi, vafot etdi, dunyodan o'tdi, shunqor bo'ldi, shahodat sharbatini ichdi, juvonmarg bo'ldi, boqiy dunyoga rixlat qildi, bu dunyoyi foniyni tark etdi, jon qushi tan qafasini tark etdi, ajal sharbatini ichdi, jonini jabborga topshirdi va hokazo. Bu so'zning dunyodagi biror tilda shuncha ko'p ma'nodoshlari bo'lmasa kerak. "Boburnoma" ning ellikdan ortiq sahifasida "g'arib"so'zi kelib, turli-tuman ma'no ifodalagan. Ingliz tili tarjimasida **g'arib** ma'nosidagi 35 ta so'z va iboradan foydalanishgan. L. Tolstoyning "Anna Karenina" romani tarjimasida M. Ismoiliy **сердце ежалоьь** so'zini bir yerda **yuragi dukurlab ura boshladi** deb tarjima qilsa, boshqa bir yerda **yuragi suyunganidan o'ynab ketdi** deb tarjima qiladi. Chunki birinchi o'rinda u – shubha, ikkinchisida esa – quvonch ma'nosida kelgan. Yoki: **Съесть собаку** iborasining so'zma-so'z tarjimasida- " it yemoq". Ma'no tarjimasida esa "Suvday bilmoq", "ezib ichmoq", "juda yaxshi bilmoq". **Куда глаза глядат** iborasi esa **boshi oqqan tomonga** deb tarjima qilinadi. "L. N. Tolstoyning " Anna Karenina" romanida **хорошо** so'zining qanday ma'nolarda kelishi va tarjimada ular qanday so'zlar bilan berilganini ko'raylik:

1. " Потом сказал Кити о том, что она очень хороша сегодня "

- " Keyin Kitiga bugun juda ochilib ketganligini aytdi".

2. "-Хорошы вы- обратились она Левину "

- "Keyin Levinga qarab:-Chakki emassiz!"- deb qo'ydi".

3. "-Я-то хорош! Я затем приехал... Непременно приезжай нынче ко мне обедать". – " Esim qurmasin! Seni aytgani keluvdim-ku... Bugun biznikiga albatta tushlik qilgani borasan".

4. "-Ну, хорошо, хорошо. Погоди ещё, и ты приедешь к этому.

- " Хау, хо'р, хо'р, sen ham bir kun eshigimizni qoqib kelarsan".

5. "- А я забылась, Костя!- сказала она ему. -И мне так хорошо теперь "

-“ Hech narsani bilmay yotib qolibman, Kostya! – dedi Kiti.- Endi qushdayman”.

Ko'rinadiki, birgina” хорошо “ so'zi besh o'rinda besh xil tarjima qilingan:” ochilib ketmoq”, “qushday”,” chakki emas”, “xo'p”, “esim qurmasin”. Bu ma'nolarning ko'pi lug'atlarda ham yo'q. Ikki lisoniy sistemani chog'ishtirish bilan quyidagqi natijalarga erishish mumkin: a) ikki filning qaysi axborot vositalarini taxminan ekvivalent hosoblasa bo'lishi; b) asl nusxa tilida mavjud bo'lgan qanday axborot vositalarining tarjima tilida mavjud emasligi; c) asl nusxa tilida mavjud bo'lmagan qanday axborot vositalari tarjima tilida mavjudligi. Tarjimaning muhim muammolaridan biri bu turli tillardagi frazeologizmlar (maqol, matal, idioma,) tarjimasidir. [7,8,9,10] K. Chukovskiy iloji boricha maqollarni so'zma-so'z tarjima qilishga intilish kerakligini aytadi. Chunki “ularda xalqning tug'ma xususiyati, fikrlashning milliy uslubi o'z ifodasini topgan bo'ladi”. “Biroq,- deb yozadi G'.Salomov,- boshqa fillarda shunday maqol va matallar ham borki, ulardan kelib chiqadigan hikmat hijjalab qilinadigan tarjima ichidagi so'zlarda o'z in'ikosini topmaydi. Ana shunday maqol va matallar juda ko'pdir. Shunday qilib, boshqa fillardagi ko'plab maqol, matal va idiomalarda aks etgan hikmatni ularning ona tilimizdagi muqobillari bilan almashtirish vositasidagina ro'yobga chiqarish mumkin”. Ma'lum bo'ladiki, tarjimaning lisoniy (lingvistik) muammosi faqat ikki filni bilish bilan chegaralansa, g'ayrilisoniy ekstralingvistik muammolari nihoyatda ko'p ekan: bu – ikki adabiyot, ikki madaniyat, ikki tarix, ikki xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, diniy e'tiqodi va marosimlari... Avtomatik tarjima faqat bir ma'noli so'zlar va bir hil grammatik tuzilishga ega tillardan tarjimada muvaffaqiyat keltirishi mumkin. Aksincha, u so'zlarni o'z o'rnida tarjima qilib qo'ya qoladi – keyin ular asosida qayta gap tuzish kerak bo'ladi. Bu ikkinchi ish bo'ladi. Badiiy bo'yoqqa ega matnlarni esa hech qachon avtomatik tarjima qilib bo'lmaydi. Chunki badiiy matnlarda so'zlar ko'pinch o'z ma'nosida kelmaydi, yoki bir necha ma'noga ega bo'ladi. Isbot:”Одряхлевшись, восклицательный знак становится вопросительным”- Undov belgisi bukchayib, so'roq belgisiga aylanadi. Asl ma'no: Alif qartayib, dol bo'ldi misolida o'z ifodasini topgan. Sir emaski, tarjimaga oid deyarli barcha zamonaviy tadqiqotlarda shu faoliyat bilan bog'liq masalalar turlicha, ko'p hollarda qiyosiy tilshunoslik yoki qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yoritib kelindi. Buning oqibatida kelib chiqqan ziddiyatlar tarjima ilmi taraqqiyotiga to'sqinlik qilib keldi. Tarjimon omili masalasi esa, bunday tadqiqotlarda deyarli e'tiborsiz qolib ketdi. [11-19] Albatta, bu katta xato edi. Holbuki, har qanday holda ham, muayyan tarjima qay darajada amalga oshirilgani yoki amalga oshirilishi tarjimon

omiliga, ya'ni uning bilimi va mahorati bilan bog'liq masalalarga bevosita bog'liq. Bas shunday ekan, tarjima ilmiga oid tadqiqotlar, shu omilga tegishli masalalarni ham qamrab olishi maqsadga muvofiq.

XULOSA

Tarjima tillarni mukamal bilish, egallash bilan yuzaga chiqadi. Qadimgi adiblarimizdan biri Yusuf Xos Xojib mashhur "Qutadg'u bilig" ("Baxt keltiruvchi bilim") asarida inson hayotida tilning o'rnini shunday ta'riflagandi:

Uquvga, bilimga tilmochdir bu til

Yoritguvchi erni rayon tilni bil.

Kishini til ulug'lar, topar qut kishi

Kishini til tubanlar, yorilar boshi. .. •

Tarjimon - tilning manashunday ulug'lovchi, odamni baxtiyor qiluvchi imkoniyatlarini ishga solib, taraqqiyotga xizmat qiluvchi shaxsdir. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tarjima odatda oddiy so'zlar yig'indisi sifatida ko'rinishi mumkin. Biroq, uning zamirida o'quvchi uchun bir qarashda kishi anglashi qiyin bo'lgan murakkab jarayon yotadi. Qolaversa, tarjimonni ko'proq o'zi ustida ishlash, qayta-qayta tahlil qilib, so'zning nozik jihatlarini taqdim etishi uchun grammatik va stilistik bo'yoqdorlik bilan bog'liq muammolarni, yanada chuqurroq o'rganishga undaydi. Buning sababi biror bir tildan ixtiyoriy olingan bir matnni, boshqa bir tilga tarjima qilishda, til bilish ko'nikmalarining o'zigina kifoya qilib qolmasligi aniq. Buning uchun tarjimon, biz yuqorida sanab o'tgan tarjima muammolari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

REFERENCES:

1. Achilov, O. R. (2018). COMPARATIVE ANALYSIS OF FOREGROUNDING IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *Web of Scholar*, 5(4), 23-27.

2. Achilov, O. R. (2017). IMPROVING STUDENTS' CRITICAL THINKING THROUGH CREATIVE WRITING TASKS. In *International Scientific and Practical Conference World science* (Vol. 4, No. 4, pp. 19-23). ROST.

3. Oybek Rustamovich Achilov (2022). COMPARATIVE STUDYING MODEL OF FOREGROUNDING IN UZBEK AND ENGLISH LITERARY TEXT. *Academic research in educational sciences*, 3 (10), 714-718.

4. Orifjonava, L. T. K., Turganbayeva, S. T. K., & Achilov, O. R. (2022). THE MAIN NOTION OF FOREGROUNDING AND IT'S INTERPRETATION. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 548-551.

5. Muxiddinov, O. N. U., Nabiev, S. M. U., & Achilov, O. R. (2022). CONVERGENCE OF STYLISTIC DEVICES IS ONE OF THE EXPRESSIVE MEANS OF

FOREGROUNDING. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 568-571.

6. Tohirov, G. T. U., Xudoyberdiyev, S. I. O., & Achilov, O. R. (2022). THE BASIC TYPES OF FOREGROUNDING AND ITS FUNCTIONS. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 557-561.

7. Tayjanov, A. S. O., & Shamuratov, S. D. O. (2022). EVALUATING CHARACTERISTIC FUNCTION OF CONVERGENCE IN LITERARY TEXT. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 577-581.

8. Samandarov, S. U. O., Ortiqov, M. I. O., & Achilov, O. R. (2022). FOREGROUNDING AS A LITERARY DEVICE. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 538-541.

9. Khakimnazarov, A. K. U., Namozov, A. O. U., & Achilov, O. R. (2022). COUPLING AS A STYLISTIC DEVICE IN UZBEK AND IN ENGLISH POEM. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 587-590

Achilov, O. R. (2018). COMPARATIVE ANALYSIS OF FOREGROUNDING IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *Web of Scholar*, 5(4), 23-27.

10. Химматов, А., Мансуров, А. Р. У., & Ачиллов, О. Р. (2022). ИСТОЧНИКИ И МЕТОДЫ ОБОГАЩЕНИЯ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Academic research in educational sciences*, 3(Special Issue 2), 43-46.

11. Tohirova, J., Sagidullayeva, M., & Rustamovich, A. O. (2022). VATAN SEVGISI-HYMON BELGISI. *Academic research in educational sciences*, 3(Special Issue 2), 132-136.

12. Жаксыбаева, Б. М. К., Алиева, Г. Т. К., & Ачиллов, О. Р. (2022). ТАРЖИМА СОХАСИГА ХОС БЎЛГАН МУАММОЛАР ВА УЛАРИНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ. *Academic research in educational sciences*, 3(Special Issue 2), 53-61.

13. Achilov, O. (2023). O.MUXTORNING "KO'ZGUDAGI ODAM" VA O. WAYLDNING "DORIAN GREYNING PORTRETI" ASARLARI QIYOSIY TAHLILI VA ILGARI SURISH VOSTILARINING ASARDA AKS ETISHI, O'XSHASHLIK VA FARQLI JIHATLARI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5). извлечено от <https://fll.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7982>

14. Achilov, O. (2023). FOREGROUNDING AND INTERPRETATION. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5). извлечено от <https://fll.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7984>

15. Achilov, O. (2023). BADIY MATNLARNI TARJIMA QILISH JARAYONIDA YUZAGA KELADIGAN TRANSFORMATSIYA VA ULARNING QIYOSIY TAHLILI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5). извлечено от <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7978>

16. Achilov, O. (2023). ILGARI SURISH - LISONIY HODISA SIFATIDA. Журнал иностранных языков и лингвистики, 5(5). извлечено от <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7986>

17. Achilov, O. (2023). ILGARI SURISH VOSITALARINING UMUMIY VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, KOGNITIV-SEMANTIK ASPEKTI. Журнал иностранных языков и лингвистики, 5(5). извлечено от <https://fll.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7980>

18. Achilov, O. (2023). TARJIMA JARAYONIDAGI O'ZGARISHLAR VA ULARNING TURLARI. Журнал иностранных языков и лингвистики, 5(5). извлечено от <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7977>

19. Achilov, O. (2023). ANATOMY OF LANGUAGE AND THEORETICAL ASSUMPTIONS OF COGNITIVE SCIENCE, COMPARATIVE ANALYZES. Журнал иностранных языков и лингвистики, 5(5). извлечено от <https://fll.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7983>